

ZAMONAVIY DISTOPIYA ROMANLARIDA BOLALAR OBRAZINING BADIY-KONSEPTUAL MODELI

Begmatova Sohiba Mustafoyevna,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili amaliy fanlar 2 kafedrasida dotsent v.b. (PhD)

mustaqil tadqiqotchi

E-mail: s.begmatova@uzswlu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy distopiya romanlarida bolalar obrazining badiiy-konseptual modeli tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi XXI asr distopik adabiyotida bolalar obrazining funksional, semantik va aksiologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tahlil materiali sifatida Syuzan Kollinsning "The Hunger Games", hamda Kazuo Ishiguroning "Never Let Me Go" romanlari tanlandi. Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik, germenevtik va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy distopiyalarda bolalar obrazi jamiyat inqirozining indikator, qarshilik subyekt, insoniy qadriyatlar himoyachisi hamda kelajak timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: distopiya, bolalar obrazi, konseptual model, zamonaviy adabiyot, distopik jamiyat, yosh qahramon, aksiologiya.

Аннотация. В данной статье исследуется художественно-концептуальная модель образа детей в современных романах-антиутопиях. Основная цель исследования заключается в выявлении функциональных, семантических и аксиологических особенностей образа детей в антиутопической литературе XXI века. В качестве материала для анализа были выбраны романы «Голодные игры» Сьюзен Коллинз и «Не отпускай меня» Кадзуо Исигуро. В ходе исследования были использованы сравнительно-типологический, герменевтический и концептуальный методы анализа. Результаты исследования показывают, что в современных антиутопиях образ детей выступает индикатором общественного кризиса, субъектом сопротивления, защитником гуманистических ценностей и символом будущего.

Ключевые слова: антиутопия, образ детей, концептуальная модель, современная литература, антиутопическое общество, юный герой, аксиология.

Abstract. This article examines the artistic and conceptual model of children's images in contemporary dystopian novels. The primary objective of the study is to identify the functional, semantic, and axiological characteristics of children's images in twenty-first-century dystopian literature. The analysis focuses on *The Hunger Games* by Suzanne Collins and *Never Let Me Go* by Kazuo Ishiguro. The research employs comparative-typological, hermeneutic, and conceptual analysis methods. The findings demonstrate that in contemporary dystopian narratives, children's images function as indicators of social crisis, subjects of resistance, defenders of human values, and symbols of the future.

Keywords: dystopia, children's image, conceptual model, contemporary literature, dystopian society, young protagonist, axiology.

Kirish. XXI asr jahon adabiyotida distopiya janri eng faol rivojlanayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Globalizatsiya, texnologik nazoratning kuchayishi, ekologik muammolar, siyosiy beqarorlik va inson erkinliklarining cheklanishi kabi omillar distopik asarlar sonining ortishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, yoshlar va bolalar qahramonlar markazga chiqarilgan distopik romanlar kitobxonlar hamda tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda [3].

Distopik adabiyotning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u jamiyatning salbiy rivojlanish istiqbollarini tasvirlash orqali zamonaviy sivilizatsiyaning muammolarini

tanqidiy yoritadi. Shu nuqtai nazardan bolalar obrazi alohida semantik yuklama kasb etadi. Ular nafaqat voqealar ishtirokchisi, balki muallifning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasini ifodalovchi markaziy badiiy vosita hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy distopiyalarda bolalar obrazining yangi badiiy funksiyalar kasb etayotganligi bilan belgilanadi. An'anaviy adabiyotda bola ko'proq tarbiya va shakllanish obyekt sifatida talqin etilgan bo'lsa, zamonaviy distopik matnlarda u ijtimoiy qarshilik va transformatsiyaning faol subyekt sifatida tasvirlanadi.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy distopiya romanlarida bolalar obrazining badiiy-konseptual modelini aniqlash hamda uning asosiy komponentlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Distopiya janri zamonaviy adabiyotshunoslikda utopik tafakkurning tanqidiy in'ikosi sifatida qaraladi va u jamiyatning ehtimoliy salbiy rivojlanish modellarining badiiy tasvirini o'z ichiga oladi. Ushbu janrning nazariy asoslari F. Jamison, M. K. Booker, G. Claeys hamda T. Moylan kabi olimlarning tadqiqotlarida shakllantirilgan bo'lib, ular distopiyani ijtimoiy-siyosiy tanqid, ideologik demaskirovka va madaniy prognostik vosita sifatida talqin qiladilar [11],[4],[5],[9],[7]. Distopik matnlarda totalitar nazorat, texnokratik boshqaruv, ekologik inqiroz va inson erkinligining cheklanishi kabi motivlar markaziy o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan, distopiya nafaqat badiiy janr, balki ijtimoiy ongni refleksiv tahlil qiluvchi konseptual tizim sifatida ham namoyon bo'ladi.

Bolalar obrazi adabiy-falsafiy diskursda ko'p qatlamli semantik struktura sifatida talqin qilinadi. U bir tomondan biologik va psixologik yetilmaganlik belgisi bo'lsa, ikkinchi tomondan sof insoniylik, madaniy beg'uborlik va axloqiy poklik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. P. Ariès, J. Rose va P. Nodelman qarashlariga ko'ra, bolalik tabiiy kategoriya emas, balki ijtimoiy-madaniy konstrukt hisoblanadi. Distopik adabiyotda esa bu obraz yanada murakkablashib, u mavjud tizimning axloqiy inqirozini ochib beruvchi indikator hamda kelajak imkoniyatlarini ifodalovchi falsafiy ramzga aylanadi [1],[10],[11]. Shu tarzda bolalar obrazi ontologik, epistemologik va aksiologik qatlamlarda bir vaqtning o'zida faoliyat yurituvchi badiiy birlik sifatida shakllanadi.

Syuzan Kollinzning "The Hunger Games" [6] hamda Kazuo Ishiguroning "Never Let Me Go" [8] romanlari asosida bolalar obrazining bir qator tipologik xususiyatlari aniqlanadi. Ushbu asarlarda bolalar, birinchidan, ijtimoiy tizim tomonidan boshqariluvchi va ekspluatatsiya qilinuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi; ikkinchidan, ular individual ong va erkinlik sari intiluvchi qarshilik subyektiga aylanadi; uchinchidan, ma'naviy tanlov va axloqiy qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etuvchi ongli shaxs sifatida tasvirlanadi. Tipologik jihatdan ushbu obrazlar "jabrlanuvchi bola", "isyonkor o'smir" va "tragik inson" modellariga ajraladi. Bu esa zamonaviy distopik diskursda bolalar obrazining ko'p funksiyali va dinamik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bolalar obrazining badiiy-konseptual modeli uning semantik, funksional va struktural komponentlari o'zaro aloqadorligi asosida shakllantiriladi. Mazkur model

quyidagi asosiy elementlardan iborat: ijtimoiy komponent (jamiyat tizimidagi o'rni va mavqei), psixologik komponent (shaxsiy identifikatsiya va ichki konfliktlar), aksiologik komponent (qadriyatlar tizimi va axloqiy tanlov), ideologik komponent (hukmron mafkura bilan munosabat) hamda prognostik komponent (kelajakni modellashtirish funksiyasi). Ushbu elementlar o'zaro integratsiya qilinib, bolalar obrazining distopik matndagi kompleks badiiy tizim sifatidagi mohiyatini ochib beradi.

Distopik diskursda bolalar obrazi bir nechta muhim funksional yuklamalarni bajaradi. U, avvalo, jamiyatning strukturaviy inqirozini aks ettiruvchi indikator vazifasini bajaradi, chunki bolalarning sharoiti orqali tizimning axloqiy va siyosiy holati ochib beriladi. Ikkinchidan, u qarshilik va transformatsiya subyektini sifatida ijtimoiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Uchinchidan, bolalar obrazi insoniy qadriyatlarining saqlovchisi sifatida distopik olamda gumanistik muvozanatni ta'minlaydi. Nihoyat, u kelajakni prognostik qiluvchi semiotik belgi sifatida muallifning falsafiy konsepsiyasini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa bolalar obrazi distopik diskursning markaziy konseptual elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Distopiya nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. M. Keis Buker [4] distopiyani jamiyatdagi siyosiy va madaniy muammolarni tanqid qilish vositasi sifatida talqin qiladi. Gregoriy Kleys [5] esa distopik adabiyotning asosiy vazifasi insoniyatni ehtimoliy xavflardan ogohlantirish ekanligini ta'kidlaydi.

Tom Moylan [9] va Raffaella Bakkolini [2] zamonaviy distopiyalarda qarshilik g'oyasining kuchayganligini qayd etadilar. Ularning fikricha, klassik distopiyalardan farqli ravishda yangi distopiyalar umidsizlik emas, balki o'zgarish imkoniyatlarini ham namoyon etadi. Bolalar va o'smirlar obraziga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida Kerri Xintz va Elin Ostri [7] asarlari alohida o'rin egallaydi. Olimlar yosh qahramonlar distopik tizimni tanqid qilishda va qarshi chiqishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydilar. Shuningdek, bolalik konsepti bo'yicha Filip Ariès [1], Jaklin Rouz [11] va Perri Nodelman [10] tadqiqotlari muhim nazariy manba hisoblanadi. Ularning qarashlariga ko'ra, bolalik biologik emas, balki madaniy hosila sifatida shakllanadi. Shu sababli distopik matnlarda bolalar obrazi jamiyatning ideologik mexanizmlarini ochib beruvchi mezon vazifasini bajaradi.

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida bolalar obrazining konseptual modeli kompleks ravishda tahlil qilinmagan. Ushbu maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qo'yilgan ilmiy maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Xususan, qiyosiy-tipologik tahlil yordamida tanlangan distopiya romanlaridagi bolalar obrazining umumiy va xususiy xususiyatlari aniqlanib, ularning tipologik modellari o'zaro solishtirildi. Germenevtik tahlil esa badiiy matnlarning ichki mazmuniy qatlamlarini,

ramziy va metaforik birliklarini izohlash hamda ularning konseptual ma'nosini ochib berishga xizmat qildi. Konseptual tahlil orqali bolalar obrazining asosiy semantik komponentlari va ularning o'zaro aloqadorlik tizimi rekonstruksiya qilindi. Diskursiv tahlil distopik matnlar doirasida shakllangan ijtimoiy, siyosiy va ideologik nutq strukturalarini aniqlash hamda ularning bolalar obrazi bilan o'zaro bog'liqligini ochib berishga yo'naltirildi. Struktur-semantik yondashuv esa matnning ichki kompozitsion tuzilishi va ma'no qatlamlarini tizimli ravishda tahlil qilish orqali bolalar obrazining badiiy-konseptual modelini yaxlit ilmiy tizim sifatida shakllantirish imkonini berdi.

Tahlil obyekti sifatida zamonaviy distopiya adabiyotining eng yorqin namunalari tanlab olindi. Jumladan, Syuzan Kollinz tomonidan yaratilgan *"The Hunger Games"* (Ochlik o'yinlari, 2008) romani hamda Kazuo Ishiguro muallifligidagi *"Never Let Me Go"* (Meni qo'yib yuborma, 2005) asarlari tadqiqot korpusi sifatida belgilandi. Ushbu tanlov mazkur romanlarda yosh qahramonlar markaziy o'rinni egallashi, shuningdek, distopik voqelikning turli model va modifikatsiyalarini ifodalashi bilan asoslanadi. *"The Hunger Games"* romanida Katniss Everdin obrazi orqali totalitar siyosiy tizimga qarshi individual va kollektiv qarshilik mexanizmlari yoritilsa, *"Never Let Me Go"* asarida Ketni obrazi misolida bioetik muammolar, inson klonlash konsepsiyasi hamda insoniylik chegaralari falsafiy tahlil qilinadi. Shu jihatdan mazkur asarlar zamonaviy distopik diskursda bolalar va o'smirlar obrazining turli funksional hamda konseptual modellarini qiyosiy o'rganish imkonini beruvchi muhim adabiy material sifatida xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalari asosida bolalar obrazining badiiy-konseptual modeli besh asosiy komponentdan iborat murakkab semantik tizim sifatida shakllantirilgan. Ijtimoiy komponent doirasida bolalar obrazi distopik jamiyatning institutsional va struktural bosimi ostida qolgan, tizim tomonidan nazorat qilinuvchi va ko'pincha ekspluatatsiya qilinuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik komponent esa ularning ichki kechinmalari, shaxsiy identifikatsiya jarayoni, ekzistensial izlanishlari hamda ruhiy konfliktlarini ifodalab, individning yopiq va repressiv muhitdagi ongiy rivojlanishini aks ettiradi. Aksiologik komponent bolalar obrazini insoniy qadriyatlar, axloqiy mezonlar va empatiya kabi universal gumanistik prinsiplarning tashuvchisi sifatida talqin qiladi, bu esa distopik voqelikda ma'naviy muvozanatni saqlovchi semantik markazni yuzaga keltiradi. Ideologik komponentda bolalar obrazi hukmron mafkuraviy tizimga nisbatan tanqidiy pozitsiyani egallovchi, mavjud siyosiy va ijtimoiy tartiblarga qarshilik bildiruvchi ongli subyekt sifatida ko'riladi. Prognostik komponent esa ushbu obrazni kelajakni modellashtiruvchi ramziy struktura sifatida talqin etib, bolalikni yangilanish, ijtimoiy transformatsiya va umid konsepsiyasining badiiy ifodasi sifatida namoyon qiladi. Shu tariqa, bolalar obrazi distopik adabiyotda ko'p qatlamli, dinamik va funksional jihatdan murakkab konseptual model sifatida shakllanadi.

Ketnis Everdin obrazi totalitar davlatga qarshi kurashuvchi yosh avlod vakili sifatida gavdalanadi. U dastlab omon qolish uchun harakat qiluvchi qahramon bo'lsa-da,

keyinchalik siyosiy qarshilik ramziga aylanadi. Roman bolalar va o'smirlarning zo'ravon tizim tomonidan ekspluatatsiya qilinishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, aynan yoshlar jamiyatni o'zgartirish salohiyatiga ega kuch sifatida tasvirlanadi.

Ishiguro romanida bolalar klonlar sifatida tarbiyalanadi va jamiyat ehtiyojlari uchun yashaydi. Biroq Ketni, Tommi va Rut obrazlari insoniy his-tuyg'ularning biologik kelib chiqishdan ustunligini namoyon etadi. Roman bolalikni insoniylikning eng muhim ontologik mezoni sifatida talqin qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy distopiya romanlarida bolalar obrazi bir vaqtning o'zida bir necha funksiyani bajaradi. Birinchidan, ular jamiyatdagi inqiroz va adolatsizlikning asosiy qurbonlari hisoblanadi. Ikkinchidan, aynan ular mavjud tizimga qarshi kurashuvchi kuch sifatida tasvirlanadi.

Ketni, Tomas va Ketni obrazlari o'rtasidagi tipologik o'xshashlik shundan iboratki, ularning barchasi avval tizimning passiv elementi bo'lsa, keyinchalik faol qarshilik subyektiga aylanadi. Shuningdek, bolalar obrazi distopik matnda axloqiy mezon vazifasini ham bajaradi. Mualliflar aynan yosh qahramonlar orqali insoniyatning ma'naviy istiqbolini baholaydilar.

Tahlil natijalari asosida bolalar obrazining badiiy-konseptual rivojlanish dinamikasini ifodalovchi izchil model shakllantirildi. Ushbu modelga ko'ra, distopik narrativlarda bola obrazi dastlab mavjud ijtimoiy-siyosiy tizimning passiv qurboni sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni u repressiv strukturalarning bevosita ta'siriga duchor bo'lgan subyekt maqomida bo'ladi. Keyingi bosqichda esa individda o'zlikni anglash jarayoni yuzaga kelib, u o'zining ijtimoiy mavqei va mavjud tizimdagi o'rnini reflektiv idrok etishga kirishadi. Ushbu ichki transformatsiya natijasida qarshilik bosqichi shakllanadi, bunda qahramon mavjud tartibotga nisbatan ongli yoki instinktiv qarshilik ko'rsata boshlaydi. Mazkur jarayon rivojlanib, uni ma'naviy yetakchilik bosqichiga olib chiqadi, ya'ni bola obrazi axloqiy va ijtimoiy jihatdan boshqalar uchun yo'naltiruvchi subyektga aylanadi. Nihoyat, ushbu evolyutsion ketma-ketlik kelajak ramzi bosqichi bilan yakunlanib, bola obrazi yangi ijtimoiy tartibot, yangilanish va umid konsepsiyasining badiiy ifodasiga aylanadi. Shu tariqa, mazkur model distopik adabiyotda bolalar obrazining funksional va semantik transformatsiyasini izchil bosqichlar orqali ifodalovchi konseptual struktura sifatida talqin qilinadi.

Xulosa. Zamonaviy distopiya romanlarida bolalar obrazi murakkab badiiy-konseptual tizim sifatida shakllangan bo'lib, u faqat voqealar rivojining harakatlantiruvchi vosita emas, balki muallifning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ifodalovchi markaziy konseptual birlik sifatida ham namoyon bo'ladi. Ushbu obraz distopik dunyo modelida turli semantik yuklamalarni o'zida jamlaydi va bir vaqtning o'zida bir nechta funksional qatlamlarda faoliyat yuritadi. Tadqiqot natijalari bolalar obrazining zamonaviy distopik adabiyotda jamiyat inqirozi mezoni, qarshilik subyektini, insoniy qadriyatlar himoyachisi hamda kelajak timsoli sifatida ko'p qirrali ramziy tizimni hosil qilishini ko'rsatadi.

Shuningdek, bolalar obrazi orqali distopik asarlarda ijtimoiy beqarorlik, axloqiy tanazzul va siyosiy nazorat mexanizmlarining inson psixologiyasiga ta'siri chuqurroq ochib beriladi. Bu obrazlar nafaqat badiiy-estetik ahamiyatga ega, balki bilim hosil qilish, voqelikni anglash va qadriyatlarni ifodalash nuqtai nazaridan ham muhimdir. Kelgusida ushbu masalani gender tadqiqotlari, posthumanizm nazariyalari yoki qiyosiy adabiyotshunoslik yondashuvlari doirasida o'rganish zamonaviy adabiy jarayonlarning yangi konseptual qatlamlarini ochib berishi mumkin bo'lgan istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ariès, P. (1962). *Centuries of Childhood*. New York: Vintage Books.
2. Baccolini, R., & Moylan, T. (2003). *Dark Horizons: Science Fiction and the Dystopian Imagination*. Routledge.
3. Begmatova, S.M. The artistic originality of Kazuo Ishiguro's dystopian novels. Dissertation abstract. UzSWLU, Tashkent, Uzbekistan, May, 2025.58 p. <https://uzswlu.uz/backend/web/files/Avtoreferat%20Begmatova%20S.%202025%20yil%20%207%20may%20%282%29%20%281%29.pdf58p>
4. Booker, M. K. (1994). *The Dystopian Impulse in Modern Literature*. Greenwood Press.
5. Claeys, G. (2017). *Dystopia: A Natural History*. Oxford University Press.
6. Collins, S. (2008). *The Hunger Games*. Scholastic Press.
7. Hintz, C., & Ostry, E. (2003). *Utopian and Dystopian Writing for Children and Young Adults*. Routledge.
8. Ishiguro, K. (2005). *Never Let Me Go*. Faber and Faber.
9. Moylan, T. (2000). *Scraps of the Untainted Sky*. Westview Press.
10. Nodelman, P. (2008). *The Hidden Adult*. Johns Hopkins University Press.
11. Rose, J. (1984). *The Case of Peter Pan, or the Impossibility of Children's Fiction*. Macmillan.